

**O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti Nemis tili nazariy fanlar  
kafedrası stajer o'qituvchisi Dilorom Israilova tomonidan Sirdaryo viloyati  
Sayxunobod tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagog-kadrlarining  
bilim darajasini kuzatish va tahlil qilish maqsadida maktabga tashrifi  
bo'yicha  
HISOBOT**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.Abduvaxitov rahbarligida joriy yilning 7-aprel kuni o'tkazilgan yig'ilishda Toshkent shahri va viloyati, Sirdaryo viloyatlaridan birlashtirilgan maktablar pedagog-kadrlari bilim darajasini oshirish maqsadida tashkil qilingan o'quv kurslari uchun oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari orasidan tajribali, salohiyatli va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirgan hamda xorijiy tajribaga ega kamida 20 nafar pedadog xodimlarni suhbat asosida saralab olish borasoda berilgan topshiriqlar, shuningdek shu bo'yicha O'zDJTU rektori U.Azizov buyrug'i ijrosini ta'minlash uchun joriy yilning 20 aprel kuni Roman-german filologiyasi fakulteti Nemis tili nazariy fanlar kafedrası o'qituvchisi Dilorom Israilova tomonidan Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktabiga tashrif buyurildi.

Tashrifdan maqsad ushbu maktabda xorijiy tillar xususan, nemis tilini o'qitish holatini o'rganish va zarur holatda pedagog-kadrlar bilim darajasini oshirish edi. Shu maqsadda dars mashg'ulotlarida kuzatuv ishlari olib borildi. Xususan, dars jadvali asosida Sayxunobod tumani Xalq Ta'limi Bo'limi (XTB)ga qarashli 4-umumiy o'rta ta'lim maktab Nemis tili o'qituvchisi Shahodat Shomirzayevaning 11-sinfda va Nasiba Qulbayevaning 1-sinfda olib borgan dars mashg'ulotlari kuzatildi.

Dars mashg'ulotlari o'rtacha saviyada o'tidi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchilar bilimga chanqoq va o'ta faol darajada qatnashishdi. Oqituvchilar bilim va saviya jihatidan o'rtacha salohiyatga ega, metodik jihatdan malakalari yetarli, oqish va gapirish ko'nikmalarini shakllantiruvchi vazifalar, o'yinlardan foydalanildi. Darsni tashkillashtirishda ba'zi hollarda kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, Shahodat Shomirzayeva doskaga mavzuni grammatik jihatdan noto'g'ri yozib qoydi va ayrim otlarning artikllarini noto'g'ri aytdi. 2-3 ta o'quvchi passiv holda qolib ketdi. Asosan yakka shaklda faol ishlandi. Foydalanilgan metodik o'yinlar natijasiga ko'ra dars maqsadiga erishildi, lekin faol o'quvchilar baholanmadi.

Nasiba Qulbayevaning darsi boshlang'ich guruh, ya'ni 1- sinfda bo'lganligi uchun o'qituvchi nemis tilida gapirmadi va bilim darajasini aniqlab bo'lmadi. Dars rus tili xonasida o'tildi va darsda q'llanilgan rasmlar rus tili faniga mo'ljallangan

edi. Darsda o'quvchilarga uy va yovvoyi hayvonlar rasmi ko'rsatilib takrorlandi va unga doir bolalar rasm chizib uni nomini nemis tilida aytdilar. Ilon so'z metodida ko'rsatilgan so'zlar ketma-ketligi orasidan hayvonlar nomini topadilar. Bolalarda tilga qiziqish yuqoriligi kuzatildi. Dars oxirida Nasiba Qulbayeva faol o'quvchilar bilimini umumlashtirib baholadi.

Bundan tashqari, kuzatuv va o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, 1-sinflarda darslik mavjud emas. Maktabda nemis tili uchun o'quv soati yetarli bo'lmaganligi sababli o'qituvchilar qayta tayorlovdan o'tib ta'lim sohasini o'zgartirib yuborganligini aytdilar. Yani, Nasiba Qulbayeva boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi bo'lib dars beradi va o'z kasbiga sodiqlik bilan yondoshgan holda 1-sinfdan nemis tilini ham o'tishga erishgan. Shahodat Shomirzayeva rus tiliga qayta tayyorlovdan o'tgan va nemis tili o'qiyotgan 11-sinf guruhini oxirga yetqazib qo'yayotganini va rus tilidan dars berayotganini aytdi. Dars soatlari kam bo'lishiga qaramay o'quvchilar ichida nemis tili fan olimpiadalarida respublika bosqichigacha chiqib 4 o'rinni egallagan, hozirda O'zDJTuning Roman-german filologiyasi fakultetining nemis tili yo'nalishiga topshirmoqchi bo'lgan o'quvchilar borligi, Munavvar Xushvaqtova shu maktabni bitirib hozirda nemis filologiyasida 1 –kursda o'qiyotganligini faxr bilan ta'kidlashdi.

Dilorom Israilova tomonidan 11-sinf o'quvchilari o'rtasida kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borildi. O'quvchilarga chet tillarni o'rganishlari muhimligini, ayniqsa nemis tilini mukammal o'rgansalar uning qanday ahamiyat kasb etishini misollar orqali tushuntirib, suhbat o'tkazildi. O'quvchilarning savollariga javob berildi. Shundan so'ng, o'qituvchilarga darslarida qo'shimcha vazifalarda foydalanishlari uchun D.Israilova tomonidan badiiy, ilmiy, publisistik va metodik kitoblar sovg'a qilindi va o'qituvchilar O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakultetiga 2022 yil 29 aprelda Germaniyalik mutaxassis tomonidan maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan metodik seminariga taklif qilindilar.



